



230105, Nukus shahri, I.Karimov k., 152-uy
Tel: (998-61) 226-00-48, (998-61) 226-00-58,
e-mail: info.mz.rk@ssv.uz

230105, Nókis qalasi, I.Karimov k., 152-jay
Tel: (998-61) 226-00-48, (998-61) 226-00-58,
e-mail: m.kurbanov@exat.uz info.mz.rk@ssv.uz

2023 yil "15" XI
№ 169

**Nukus ShTB va barcha TTB boshliqlari,
Respublika DPMLari, tibbiyot muassasalari,
barcha sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatlik boshqarma va
bo'limlari boshliqlariga**

Ko'rsatma xat

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 15- noyabrdagi 03-14/26644-sonli xat ijrosini ta'minlash maqsadida,

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha Hukumat komissiyasi yig'ilishining 2023 yil 11 noyabrdagi 86-sonli bayonida belgilangan tapshiriqlar ijrosini ta'minlash, 2023-2024-yillar kuz-qish mavsumida davolash-profilatika muassasalarida yong'inlarni oldini olish maqsadida 2023 yilning **15-noyabr 15-dekabr kunlari davomida respublikada "Yong'in xavfsizligi oyligi"** o'tkazilishini e'tiborga olsin.

"Yong'in xavfsizligi oyligi" samarali tashkil etilishini, shuningdek, uning doirasida belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, mavjud muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rilishini ta'minlasin.

Rejalashtirilgan tadbirlarning natijadorligi uchun barcha bo'g'inlardagi rahbarlarning mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rsin.

Davlat yong'in nazorati organlari tomonidan o'tkazilgan profilaktika tadbirlari yoki tekshirishlari natijasi yuzasidan taqdim etilgan tavsiyanoma yoki dalolatnoma (yozma ko'rsatma)lardagi yong'inga qarshi tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko'rish hamda natijasi bo'yicha hududiy favqulodda vaziyatlar idoralari va Sog'liqni saqlash vazirligiga belgilangan tartibda axborot taqdim etib borsin.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi mutaxassislari bilan birgalikda tibbiy ta'lim va davolash-profilatika muassasalarining xodimlari, o'quvchi va talabalar ishtirokida yong'inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish va ularda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish yuzasidan suhbatlar, viktorinalar va o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishini ta'minlasin.

"Yong'in xavfsizligi oyligi"ni tashkil etish va joylarda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha har o'n kunda Sog'liqni saqlash vazirligiga batafsil axborot kiritib borsin.

Oylik yakunlari bo'yicha erishilgan natijalarni tanqidiy ko'rib chiqib, **sustkashlikka yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan ta'sir choralarini ko'rsin hamda tadbirda faol ishtirok etgan xodimlar rag'batlantirilishini** tashkil etsin.

"Yong'in xavfsizligi oyligi" yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda mavjud muammolar to'g'risida joriy yil 16-dekabrga qadar Sog'liqni saqlash vazirligiga umumlashtirilgan ma'lumot kiritsin.

Mazkur ko'rsatma ijrosining nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir o'rinbosari

T.Sarbayev

002764*